

QORAQALPOG'ISTON SHAROITIDA DIPTERA TURKUMIGA MANSUB AGROMYZIDAE OILASI VAKILLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1071>

Jannazarova G.M., Juginisob T.T., Tajetova.G.P

Qoraqalpoq davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda Diptera turkumiga mansub Agromyzidae oilasi vakillarining bioekologik xususiyatlari, ularning qishloq xo'jaligi ekinlariga yetkazadigan zarari hamda tarqalish qonuniyatlari yoritilgan. Barg g'ovaklovchi pashshalarning o'simliklarga salbiy ta'siri va hududiy sharoitda ularni o'rganishning dolzarbligi asoslab berilgan. Ushbu tezis ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslangan holda bajariladi

Kalit so'zlar: *Agromyzidae, Diptera, leafminer, bioekologiya, Liriomyza, zararkunanda, agroekosistema.*

KIRISH

Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va ularning fitosanitar holatini yaxshilash bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Barg kovlovchi pashshalar — Diptera turkumiga mansub Agromyzidae oilasi vakillari o'simliklarga sezilarli zarar yetkazuvchi asosiy zararkunandalar qatoriga kiradi. Ularning lichinkalari barg parenximasida oziqlanib, o'ziga xos "mina" hosil qiladi, natijada fotosintez jarayoni buziladi va hosildorlik pasayadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining keskin kontinental iqlimi ushbu zararkunandalar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, hududda Agromyzidae oilasi vakillarining bioekologik xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida Agromyzidae oilasi vakillarining bioekologik xususiyatlarini tahlil qilish va ularning qishloq xo'jaligiga ta'sirini baholash.

Asosiy qism

Diptera turkumi Agromyzidae oilasi turlarining dunyo faunasi 3000 ga yaqinturlari aniqlangan (B.B. Zlobin. 2006). Agromyzidae oilasini 2 ta kichik oilaga : Agromyzinae va phytomyzinae ga bo'ldi. (Hendel 1920). Agromyzidae vakillari to'liq metamorfoz bilan rivojlanib, tuxum, lichinka, g'umbak va imago bosqichlarini o'taydi. Lichinkalari barg parenximasi bilan oziqlanib, o'ziga xos g'ovaklar (minelar) hosil qiladi. Agromyzidae oilasi tarkibida asosiy zararkunanda avlodli Liriomyza avlodining 23 turi iqtisodiy jihatdan muhim hisoblanadi. Ular qishloq xo'jalik va dekorativ o'simliklarga katta zarar yetkazadi. Ayniqsa Liriomyza avlodiga mansub turlar (*L. trifolii*, *L. sativae*, *L. bryoniae*) iqtisodiy jihatdan muhim zararkunandalar hisoblanadi (A.T. Ushekov. 1992–2002). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zararlanish darajasi oshishi bilan hosildorlik 10–20% gacha kamayadi (M. Ledieu va N. Helyer. 1985). Zararkunanda rivojlanishi uchun optimal sharoit 20–25°C harorat va 60–80% namlik hisoblanadi. Qulay iqlim sharoitida yil davomida 10 dan ortiq avlod berishi mumkin (A.T. Ushekov. 1992–2002). Dunyo miqyosida eng keng tarqalgan agromyzidae oilasi vakili Liriomyza trifolii (1-rasim) pomidordagi iqtisodiy xavfi chegarasi soni 15 ta g'ovak/barg bo'lib, agar g'ovak soni 30 taga etsa hosildorlik 10% ga, 50–60 taga etganda esa hosildorlik 18–20% ga kamayadi (K. Spencer. 1984). Barglarda g'ovak hosil qiluvchi turlarning lichinkalari bargning palisad parenximasi bilan oziqlanib, o'simlik fotosintez sistemasini buzadi.

Bunda o'simlik kuchsiz bo'lib, o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi, yosh o'simliklar nobud bo'lishi mumkin.



1-rasim *Liriomyza trifolii*

Turli mualliflar *Liromyza* turlarining 20-30°C da faol rivojlanishini qayd etgan, ammo qurg'oqchil continental hududlarda bu ko'rsatkich biroz farq qiladi.

Qoraqalpog'iston hududining keskin kontinental iqlimi (yuqori harorat va namlikning notekis taqsimlanishi) ushbu hashoratlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qoraqalpog'iston sharoitida *Agromyzidae* oilasining tur tarkibi va fenologiyasi bo'yicha tizimli tadqiqotlar deyarli mavjud emas.

XULOSA

Agromyzidae oilasi vakillari qishloq xo'jaligi ekinlarining xavfli zararkunandalari hisoblanadi. Ularning bioekologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, ayniqsa Qoraqalpog'iston sharoitida, hosildorlikni saqlash va samarali kurash choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu zararkunandalarni dala sharoitida o'rganish va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xo'jaev, Sh. T., & Xalmuradov, A. E. Entomologiya, qishloq xo'jaligi ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Tashkent: Fan, 2010. 355 p.
2. Sulaymonov, B. A. O'simliklarni biologik himoya qilish vositalari. Tashkent: Fan va texnologiya, 2012. 508 p.
3. Akhmetova, Zh. O. Paslenovaya mukha i ee entomofagi v zashchishchennom grunte Moskovskoi oblasti. In: Biol. metod bor'by s vreditelyami ovoshch. kul'tur. Moscow, 1989. pp. 31–34.
4. Zlobin, V. V., & Drugova, E. V. Miniruyushchie mukhi semeistva *Agromyzidae*. *Zashchita i karantin rastenii*, 2002, No. 7, pp. 28–32.
5. Ushekov, A. T., Antipova, O. V., & Akhatov, A. K. Paslenovyi miner. *Sistema spetsial'nykh meropriyatii*. *Zashchita i karantin rastenii*, 2003, No. 1, pp. 20–22.
6. Дуйсенгалиев Е. Современное состояние насекомых вредителей в условиях республики каракалпакстан //Форум молодых ученых. – 2021. – №. 4 (56). – С. 128-130.
7. Stegmaier, C. E., Jr. A review of recent literature on the host plant range of the genus *Liriomyza* Mik (Diptera: *Agromyzidae*) in the continental United States and Hawaii, excluding Alaska. *Florida Entomologist*, 1968, 51, pp. 167–182.
8. Zlobin, V. V. Contribution to the knowledge of *Agromyza* species (Diptera: *Agromyzidae*) feeding on Leguminosae. *International Journal of Dipterological Research*, 2000, 11(1), pp. 37–45.
9. Duysengaliev E. S., Zhuginisov T. I. Bioecological characteristics of the family of beetles (Coleoptera, *cerambycidae*) //city. – 2024. – T. 1. – C. 2.
10. Juginisov T. et al. The impact of ecological factors on the biological activity of insects //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – T. 3331. – №. 1. – C. 040049.